NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARNING SIYOSIY ONG VA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI

Muxtorov Karimbek Boymirza o‘g‘li
Guliston davlay pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: mazkur maqolada nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy ongi va madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha rivojlangan xorijiy davlatlar (AQSh, Germaniya va Skandinaviya mamlakatlari) tajribasi tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot davomida nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini ta’minlashning institutsional mexanizmlari, "inklyuziv demokratiya" tamoyillari va ijtimoiy adaptatsiya modellarining siyosiy qarorlar qabul qilishdagi o‘rni o‘rganilgan. Xorij tajribasiga tayanib, nogironligi bo‘lgan shaxslarni passiv ijtimoiy obyektlardan faol siyosiy subyektlarga aylantirishning samarali usullari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: nogironligi bo‘lgan shaxslar, siyosiy ong, siyosiy madaniyat, xorij tajribasi, inklyuziv siyosat, siyosiy ishtirok, ijtimoiy model, demokratik jarayonlar

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy faolligi, siyosiy ongi va madaniy hayotda ishtiroki zamonaviy jamiyatlar uchun dolzarb masalalardan biridir. XXI asrning global rivojlanish tendensiyalari nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida qabul qilish, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek, ularning siyosiy, madaniy va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan kompleks siyosatni shakllantirishni talab qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy ongini va madaniy hayotga integratsiyasini rivojlantirish nafaqat ijtimoiy adolat tamoyillarini ta’minlaydi, balki demokratik institutlarning mustahkamlanishiga ham hissa qo‘shadi. nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy faolligi va madaniy ishtirokini oshirishda samarali mexanizmlar mamlakatning siyosiy institutlari, qonunchilik bazasi, ijtimoiy tashkilotlar faoliyati hamda madaniy va ta’lim resurslarining uyg‘unligi bilan bog‘liq. Shu bois, xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari – masalan, G‘arbiy Yevropa davlatlarida inklyuziv siyosiy model, Shimoliy Amerika mamlakatlarida fuqarolik faoliyati va madaniyatni rivojlantirishdagi imkoniyatlar tizimi – nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy va madaniy ongini shakllantirishda muhim pedagogik, siyosiy va metodologik ahamiyat kasb etadi.

Jahonda kechayotgan demokratik transformatsiyalar sharoitida nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirish masalasi “inklyuziv jamiyat” barpo etishning muhim indikatorlaridan biri hisoblanadi. “Garbiy Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bu qatlamning siyosiy faolligi nafaqat huquqiy kafolatlar, balki ijtimoiy himoyaning “huquqiy-ijtimoiy modeli” asosida shakllangan. Ushbu modellarning shakllanishida bir qator olimlarning nazariyt qarashlari fundamental asos sifatida xizmat qiladi. Xususan Britaniyalik sotsiolog olim M.Oliver nogironlikning ijtimoiy modelini fanga kiritgan. Uning tadqiqotlarini asosini, “Nogironlik bu individual holat emas, balki jamiyatning ushbu shaxslarni integratsiya qila olmasligining natijasidir, shuning uchun siyosiy madaniyatning asosi

nogironlarni davolashda emas, balki jamiyatdagi siyosiy va ijtimoiy to‘siqlarni bartaraf etishda namoyo bo‘ladi” g‘oyasi tashkil etadi[1].

Shuningdek, Nobel mukofoti sovrindori Amartya Sen o‘zining “Imkoniyatlar yondashuvi” (Capability Approach) doirasida nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy faolligini baholar ekan, “Haqiqiy siyosiy erkinlik va madaniyat shaxsning shunchaki huquqlarga ega bo‘lishida emas, balki ushbu huquqlardan amalda foydalanish va qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish imkoniyatining mavjudligi bilan belgilanadi”[2]. Amerikalik faylasuf M.Nussbaum esa Nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy ishtirokini inson qadr-qimmatining ajralmas qismi deb baholaydi va “Demokratik jamiyatning asosiy vazifasi – intellektual yoki jismoniy holatidan qat’iy nazar, har bir fuqaroning siyosiy rejalashtirishda ishtirok etish qobiliyatini kafolatashdir”[3] degan fikrni asoslab beradi.

Skandinaviya mamlakatlarida (Shvetsiya, Norvegiya) “teng imkoniyatlar” tushunchasi siyosiy madaniyatning o‘zagini tashkil etadi. Ushbu mamlakatlarda nogironligi bo‘lgan shaxslar shunchaki yordam oluvchi passiv qatlam emas, balki mahalliy va davlat miqyosidagi qarorlar qabul qilish jarayonining faol ishtirokchilaridir. Ushbu mamlakatlarda “universal dizayn” tamoyili faqat arxitektura bilan cheklanmay, siyosiy kommunikatsiyalarga ham tadbiq etilgan. Masalan, siyosiy partiyalarning dastuyrlari, saylovoldi targ‘ibot materiallari va davlat xizmatlari portalining nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun to‘liq moslashtirilgan shuning natijasida siyosiy axborot olish imkoniyatini beradi hamda siyosiy ong va madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi[4].

Amerika Qo‘shma Shtatlarida nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy ong va madaniyatini rivojlantirishning o‘ziga xos modeli jahon miqyosida "huquqlarga asoslangan yondashuv"ning eng yetakchi namunasi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tizimning konseptual asosi 1990-yilda qabul qilingan "Nogironligi bo‘lgan amerikaliklar to‘g‘risida"gi qonun (ADA – Americans with Disabilities Act) bo‘lib, u nogironlikni tibbiy nuqson emas, balki fuqarolik huquqlarining bir qismi sifatida e’tirof etadi. Amerika tajribasida siyosiy ongni rivojlantirishning birinchi muhim bo‘g‘ini – bu siyosiy himoya (advocacy) harakatlarining kuchliligi bo‘lib, "Biz haqimizda bizsiz hech narsa" (Nothing About Us Without Us) tamoyili ostida nogironlar tashkilotlari siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida bevosita ishtirok etadi. AQShda nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy madaniyati saylov infratuzilmasining to‘liq moslashuvchanligi orqali yuksaltiriladi; xususan, "Ovoz berishda yordam berish to‘g‘risida"gi qonun (HAVA) har bir saylov uchastkasida ko‘zi ojizlar yoki harakati cheklanganlar uchun maxsus texnologiyalar bo‘lishini majburiy qilib qo‘ygan. Bu esa ushbu toifadagi fuqarolarda o‘z ovozining ahamiyatiga bo‘lgan ishonchni va davlat boshqaruvidagi sub’yektlik hissini kuchaytiradi. Bundan tashqari, AQShda nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy ongi sotsializatsiyasida nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) va maxsus "Mustaqil yashash markazlari" (Centers for Independent Living) hal qiluvchi rol o‘ynaydi; ular nogironligi bo‘lgan fuqarolarga nafaqat huquqiy yordam beradi, balki ularni siyosiy yetakchilikka, lobbiga va saylovlarda nomzod sifatida ishtirok etishga o‘rgatadi. Amerika modelining yana bir o‘ziga xos jihati – bu inklyuziv ta’lim va axborot ochiqligi bo‘lib, siyosiy partiyalarning dasturlari, nomzodlarning chiqishlari va barcha siyosiy materiallar surdotarjima, brayl yozuvi yoki oson o‘qiladigan formatlarda taqdim etilishi shart. Bunday keng ko‘lamli tizim nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyatning passiv a’zosidan, davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta’sir ko‘rsatuvchi, o‘z huquqlarini yaxshi biladigan va ularni himoya qila oladigan faol siyosiy qatlamga aylantirishga xizmat qiladi.

Buyuk Britaniyada nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy ongi va madaniyatini rivojlantirishning o‘ziga xosligi shundaki, ushbu mamlakat nogironlikning "ijtimoiy modeli"

[1] Oliver M. The Politics of Disablement: A Sociological Approach / M. Oliver. – New York: St. Martin's Press, 1990. – 152 p.
[2] Sen A. Development as Freedom / A. Sen. – Oxford: Oxford University Press, 1999. – 366 p.
[3] Nussbaum M. C. Frontiers of Justice: Disability, Nationality, Species Membership / M. C. Nussbaum. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2006. – 487 p.
[4] Simonsen E. Disability history in Scandinavia: Part of an International Research Field. Scandinavian Journal of Disability Research. Vol. 7, No. 3 /4, 137 /154, 2005

(Social Model of Disability) fan va amaliyotga kirib kelgan asosiy markaz hisoblanadi. Britaniya tajribasida nogironlik shaxsning jismoniy nuqsoni emas, balki jamiyat tomonidan yaratilgan to‘siqlar (infratuzilma, munosabat va axborot cheklovlari) natijasi sifatida talqin qilinadi. Shu sababli, mamlakatda siyosiy madaniyatni yuksaltirishning asosi ushbu to‘siqlarni bartaraf etish va nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonidagi bevosita ishtirokini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Britaniya modelining markaziy huquqiy asosi 2010-yilda qabul qilingan "Tenglik to‘g‘risida"gi qonun (Equality Act 2010) bo‘lib, u davlat va xususiy sektor zimmasiga nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun siyosiy va ijtimoiy hayotda "oaqilona moslashtirish" (reasonable adjustments) majburiyatini yuklaydi. Siyosiy ongni rivojlantirishda Buyuk Britaniya hukumati tomonidan tashkil etilgan "Siyosiy ishtirok fondi" (Enabling Fund for Elected Office) muhim rol o‘ynaydi; ushbu fond nogironligi bo‘lgan nomzodlarning saylov kampaniyalari davomida yuzaga keladigan qo‘shimcha xarajatlarini (masalan, surdotarjimon, maxsus transport yoki yordamchi xizmati) qoplab beradi, bu esa ularda siyosiy yetakchilik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Britaniyada nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy faolligi nafaqat saylov huquqi, balki "Vakillik demokratiyasi" tamoyili orqali namoyon bo‘ladi; mamlakat parlamentida (Lordlar palatasi va Jamoalar palatasi) nogironligi bo‘lgan deputatlar salmoqli o‘ringa ega bo‘lib, ular maxsus parlamentlararo guruhlar orqali nogironlik siyosatini nazorat qiladilar. Bundan tashqari, Buyuk Britaniyadagi "Nogironlar tashkilotlari koalitsiyasi" (BCODP) kabi fuqarolik jamiyati institutlari nogironligi bo‘lgan shaxslar orasida siyosiy savodxonlikni oshirish, ularni lobbizm va o‘z huquqlarini himoya qilish san’atiga o‘rgatish bo‘yicha tizimli seminarlar o‘tkazadi. Britaniyada barcha hukumat hisobotlari va saylov materiallari "Easy Read" (Oson o‘qiladigan format) versiyalarida chop etiladi, bu esa intellektual rivojlanishida o‘ziga xosligi bo‘lgan shaxslarning ham siyosiy jarayonlarni tushunishi va ongli tanlov qilishini ta’minlaydi. Xulosa qilib aytganda, Buyuk Britaniya tajribasi nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamdan, davlat siyosatini shakllantiruvchi va boshqaruvda teng huquqli ishtirok etuvchi faol siyosiy subyektga aylantirishning samarali mexanizmini namoyish etadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy ongi va madaniyatini yuksaltirish zamonaviy demokratik jamiyatlarning inklyuzivlik darajasini belgilovchi asosiy mezonlardan biri bo‘lib, bu yo‘nalishda shakllangan xorij tajribasi o‘ziga xos konseptual modellarga tayanadi. Xalqaro amaliyotda, xususan, AQSh, Germaniya va Skandinaviya mamlakatlarida nogironlikka nisbatan "tibbiy model"dan voz kechilib, "ijtimoiy model"ga o‘tilishi nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyatning passiv ijtimoiy himoya obyektidan faol siyosiy subyektiga aylantirishning nazariy asosi bo‘lib xizmat qildi. Amerika Qo‘shma Shtatlari tajribasida 1990-yilda qabul qilingan "Nogironligi bo‘lgan amerikaliklar to‘g‘risida"gi qonun (ADA) nafaqat jismoniy to‘siqlarni bartaraf etish, balki nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy huquqlarini himoya qilish (advocacy) va ularning saylov jarayonlaridagi mustaqil ishtirokini ta’minlash orqali siyosiy sotsializatsiyaning yuksak darajasini ta’minladi. Skandinaviya mamlakatlarida, xususan Shvetsiya va Norvegiyada nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy madaniyati "universal dizayn" va "korporativ inklyuzivlik" tamoyillari asosida rivojlanib, bu yerda davlat va nogironlar manfaatlarini himoya qiluvchi nodavlat tashkilotlar o‘rtasida mustahkam ijtimoiy sheriklik tizimi yo‘lga qo‘yilgan; mazkur tizim doirasida nogironligi bo‘lgan shaxslar qonun loyihalarini ishlab chiqish va ularni ekspertizadan o‘tkazish jarayonlariga bevosita jalb qilinadi, bu esa ularning siyosiy mas’uliyat va ishtirok tuyg‘usini shakllantiradi. Germaniya tajribasida esa maxsus kvotalar tizimi va siyosiy partiyalar tarkibida nogironligi bo‘lgan shaxslarning vakilligini ta’minlovchi ichki mexanizmlar orqali ularning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonidagi hissasi institutsional darajada mustahkamlangan. Raqamli texnologiyalar asrida Estoniya va AQSh kabi davlatlarda joriy etilgan elektron ovoz berish va virtual siyosiy platformalar jismoniy harakati cheklangan fuqarolarning siyosiy maydondagi axborot olish va o‘z irodasini ifodalash imkoniyatlarini kengaytirib, ularning siyosiy ongi sotsializatsiyasini tezlashtirmoqda. Xorij tajribasini tizimlashtirish shuni ko‘rsatadiki, nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy madaniyatini rivojlantirish faqat qonuniy huquqlar berish bilan cheklanmay, balki jamiyatda "inklyuziv siyosiy muhit" yaratish, saylov infratuzilmasini moslashtirish hamda maxsus ta’lim

dasturlari orqali ularning siyosiy savodxonligini tizimli ravishda oshirib borishni taqozo etadi. Bunday kompleks yondashuv nogironligi bo‘lgan shaxslarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini deklarativ harakterdan real demokratik amaliyotga aylantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyoitlar ro‘yxati:

1. Oliver M. The Politics of Disablement: A Sociological Approach / M. Oliver. – New York: St. Martin’s Press, 1990. – 152 p.
2. Sen A. Development as Freedom / A. Sen. – Oxford: Oxford University Press, 1999. – 366 p.
3. Nussbaum M. C. Frontiers of Justice: Disability, Nationality, Species Membership / M. C. Nussbaum. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2006. – 487 p.
4. Simonsen E. Disability history in Scandinavia: Part of an International Research Field. Scandinavian Journal of Disability Research. Vol. 7, No. 3 /4, 137 /154, 2005